

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA “O’TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI AMALDORLARNING AYOL VA FARZANDLARI NOMLARINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI.

Bafoyeva Nigora Azimovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, O’zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi, O’zbekiston, Buxoro shahri
E-mail: bafoyevanigora@buxdpi.uz

Annotatsiya: Zamonaviy psixologiyada badiiy asarda mavjud onomastik birliklar sirasiga kiruvchi shaxs nomlarining ta’siri katta. Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ergan bo’ladi. Ismlar ma’lum bir shaxsnинг avlodi, uning jamiyatda tutgan o’rni haqida ham xabar beradi. Ismlar jamiyatda muhim ma’noviy va siyosiy ahamiyatga ham ega. Ular qanday shaklda bo’lmashin, kishilarni alohida shaxs, individ sifatida atashga xizmat qiladi. Maqolada antroponimlarning zamonaviy psixologiya va jamiyatda tutgan o’rni xususidagi mulohazalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: psixologiya, kitobxonlik, ismlar, psixologik ta’sir, pedagogik mahorat.

Kirish. Abdulla Qodiriyning romanlariga yuzlab adabiyotshunoslar, minglab muxlislar murojaat qiladi. Badiiy so‘zning zilol chashmasidan sirmiradi; yuraklar huzur hamda zavqqa to’ladi. Ayni damda, elga mashhur adiblardan tortib, har doimgidek adabiyot darslarida oddiy insho mashq qiluvchi maktab o‘quvchisi ham, zarurat tug‘ilganida, bevosita romanning ichkarisiga kirmasdan, shundoq ostonada turib, adibning hikmatga aylanib ketgan “Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” gapini o‘zları uchun shior qilib oladi.

Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanida antroponimlarning tarkibiy qismi bo‘lmish ism va ota ismlaridan tashqari tarixiy real shaxslar, avliyolar, mifologik qahramonlarning nomlari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi. Tarixiy shaxslar nomlari – asar XIX asr voqealari, ijtimoiy manzaralari, turmush tarzini aks ettirgan va bu murakkab tarixiy davr asar qahramonlari Otabek va Kumushning fojiali sevgi qissasi chizgilari asosida tasvirlangan. Asar voqealari XIX asrda juda murakkab tarixiy vaziyatda ro‘y beradi. Xonlik va bekliklar bir-biri bilan doimiy ixtilofda, qipchoq va qorachopon nizolari elning yostig‘ini quritgan va eng katta tahlika Turkistonga tashqi dushman tahdid solayotgan jiddiy va tom ma’noda chigal davr yoritilgan. Shu bilan birga, asar yozilgan yillar muhiti ham o‘ta dog‘uli va tahlikali edi. Shu bois, undagi aksar qahramonlar tarixiy shaxslar bilan aloqador.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarining tasniflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, antropologik

tahlil usullari bilan asoslangani, “O’tkan kunlar” romaniga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. “O’tkan kunlar” – tarixiy roman. Bu haqda Oybek shunday yozgan edi: “O’tkan kunlar” tarixiy syujetga ega. Haqiqatdan, asarda juda ko‘p tarixiy voqealar tasvir etilgan. Yozuvchi tarixiy materiallarni ko‘proq kiritib, asarda tarixiy turmushni eslashtirishga, tarixiy manzarani ta’min qilishga muvaffaq ham bo‘ladi”.

Darhaqiqat, “O’tkan kunlar”da an’anaviy tarixiy romanning asosiyligi, yetakchi xususiyatlari mavjud. Asarning yetakchi qahramonlari (Otabek, Kumush, Yusufbek hoji) va personajlarining qiyofasi, ruhiy dunyosi, xatti-harakati orqali moziyning muhim bir davri badiiy in’ikos etadi [1.29-b].

Romanda xonlik davridagi amaldorlarning ayol va farzandlari nomlari: Sorabek oyim, Xushro‘y, Azimbek, Karimbek, Zaynab, Hanifaoyim, Alimqul;

O‘zbek oyimning lozim topishicha, bu takliflardan faqat o‘n chog‘lug‘i ijobat etiladirgan bo‘lib va birinchi martaba Normuhammad qushbegining xotini **Sorabek oyimnikiga**, ya’ni o‘rdaga borilmochi edi [2.362-b].

Nusratbek bolsa ko‘chaga chiqg‘anda beklik da’vosini qilib, uyiga kirganda **Xushro‘ybekka** mute’ [2.388-b].

Mohirabonudan ikki o‘g‘ul va ikki qiz dunyog‘a kelib, to‘ng‘uchi **Azimbek**, undan keyingisi Xushro‘y (yoshlig‘ida Xushro‘y o‘rniga Xushra der edilar), uchunchisi **Karimbek** va to‘rtinchisi bizning **Zaynab** edi [2.384-b].

Alimqul (1833—1865) Andijon atrofidagi qirg‘iz-qipchoq qabilalaridan birida tug‘ilgan. Qo‘qon xoni Muhammad Sulton Saidning otalig‘i (murabbiysi va maslakchisi) [2.294-b].

U. Normatov ta’biri bilan aytganda jahon adabiyotidagi shoh asarlarning dunyoga kelish tarixi shundan dalolat beradiki, ularning har biri, avvalo, davr, ijtimoiy vaziyat taqozosi, qolaversa, mualliflar tarjimai holi, oilaviy va ijodiy muhiti, hayotiy tajribalari, bilim darajasi, tafakkur tarzi, miqyosi, ma’naviy bisoti, maslak, aqida-e’tiqodi, orzu-tilishlari, eng muhimi, ijtimoiy ideallari hosilasidir.

Oradan yillar o‘tgani sari Abdulla Qodiriydek favqulodda iste’dod egasining betakror poetik tafakkur mevasi bo‘lgan “O’tkan kunlar” dek birinchi o‘zbek romani qadr topayotgani sir emas. Ijodkor o‘z asarida tarixni yoritar ekan, tarixiy shaxs nomlaridan unumli foydalana olgan. Bu antroponomilar asar mazmuniga alohida ko‘rk va joziba bag‘ishlay olgan. Onomastikaning birligi hisoblanmish antroponomnika va uning semantik-uslubiy xususiyatlarini ilmiy tahlil etish, yosh avlod ongida bu sohaga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish tilshunosligimizning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Antroponomilar tizimini tilshunoslikda til doirasida ilmiy o‘rganish va tahlil qilish, ularning leksikografiyada ifodalanishi, turlar bo‘yicha tizimga solish, tasnif qililish, turli

tabiatli tillardagi antroponimlarni chog‘ishtirish orqali o‘ziga xos va o‘xshash jihatlarini aniqlash zarur masalalar sirasiga kiradi. Mazkur masalalarni tadqiq etish antroponimlarning o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rsatishda, tilga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirilayotgan bir davrda madaniyatlararo muloqotdagi ayrim to‘siqlarni bartaraf etishda hamda tillarni o‘qitish va o‘rganishda o‘rinli xizmat qiladi. Asosan, badiiy asar tili, onomastik birliklar orqali ta’sir etish masalalari o‘z ilmiy yechimlarini hali hamon kutmoqda. Bizning tadqiqodimiz obyekti hisoblangan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romasi onomastikasi bu o‘rinda diqqatga sazovor manba. Chunki muallif har bir qahramoniga shunchaki nom tanlamagan.

Habibullo Qodiri otasi haqida eslar ekan, asar haqida ham birqancha ma’lumotlar beradi. Uning aytishicha, Qodiri har hafta do‘stlari bilan gap o‘ynasharkan. Har hafta shu gapga Qodiri “O‘tgan kunlar”ning yangi boblarini olib borar va do‘stlariga o‘qib berarkanlar. Bir kuni Habibulla aka xonadonlarida gap majlisida asarning oxirgi qismini o‘qib bergenlarida hamma o‘rtoqlari, o‘zlariyam yig’lagan ekanlar. Shu voqeadan oldin bir kuni Qodiri ko‘zlarida yosh bilan uydan chiqolmay qolibdilar. Uydagilar hayron bo‘lib nima bo‘lganligini so‘raganlarida, ular Kumushni o‘ldirib qo‘ydim deb kuyingan ekanlar. Judayam istamagandim, bosh qahramonni o‘ldirishni, deb eslaydilar Abdulla Qodiri.

Bu asar o‘zbek kitobxonlariga judayam ma’qul tushgan edi. Hatto siyohi qurimay turib, odamlar o‘qigani olishardi bu kitobni. Mahallalarda ataylab, choyxonalarda, kutubxonalarda shu odamlar to‘planib, shu kitobni o‘qishgan ekan.

Izzat Sulton shunday yozadi: “Men Qodiriyydan: “O‘tgan kunlar” romaningiz voqeiy asarmi, deb so‘radim”. “Yo‘q, – dedilar u kishi, – romandagi besh-o‘n foiz ayrim tarixiy voqealar, shaxslargina voqeiy. Qolganlari yozg’uvchining mahorati...” Bu javob mening “O‘tgan kunlar”ga bo‘lgan e’tiqodimni juda susaytirdi. To‘g’risi, shunday deb javob bergenlari uchun xafa ham bo‘ldim. Chunki o‘sha choqqacha men “O‘tgan kunlar”ni voqeiy asar deb yurardim...”

Habibullo Qodiri: Dadamning:- O‘zbek oyim - bu Josiyat bibing, Oftob oyim xonim bibing, Kumush esa - Oykumush opang, - deb kulganlarini xotirlayman. Garchi Qodiri bu so‘zlarni kulib aytgan bo‘lsalar ham o‘ylab turib, bunga ishongingiz keladi. Chunki Qodiriya ishora qilgan shaxslar nazarimda xuddi roman qahramonlariga o‘xshar edi.

Xulosa. Budan kelib chiqadiki, antroponimika “sehirli dunyo”. Olim va olimalar uni o‘rganishga kirishar ekan, bu sohaning yangi qirralarini kashf etishaveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муродов Ф.Тарихий романнинг муштараклик ва узига хос уйғунлиги муаммолари. филология фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс... – Тошкент, 2018. – Б. 29.
2. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романи. «Адабий барқарор асарлар туркуми». –Т., 2019. –Б.19.
3. Bafoyeva, N. (2025). THE RELATIONSHIP OF PERSONAL NAMES TO THE VOCABULARY LAYER IN THE NOVEL “DAYS GONE BY”. TAMADDUN NURI JURNALI, 1(64), 305-308.
4. Bafoyeva, N. (2024). International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri's Novel "Days by Gone". Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
5. Bafoyeva, N. (2024). International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri's Novel "Days by Gone". Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
6. International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri's Novel" Days by Gone"